

## XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARI, BOZORLAR VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

*Jumayeva Parvina  
Axmadaliyeva Niholaxon*

**Annotatsiya:** Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti shakllanishi, iste'mol talabiga oid yangi muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bozor munosabatlariga o'tish bozor ishtirokchilariga yangi talablarni qo'ymoqda – ularni ma'lum iste'mol talabi uchun foydalanilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotishga majbur qilmoqda. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishiga asoslangan hozirgi siyosati korxonalar, firmalar va tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil qilish, ularning ichki va tashqi iqtisodiy munosabatlarining bozor talablariga moslashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada investitsiya va tashqi iqtisodiy faoliyatning iqtisodiy mazmun-mohiyati, uning barqaror iqtisodiy yuksalishni ta'minlashda muhim omil sifatida ahamiyati va faol investitsiya siyosatini yuritishda davlat boshqaruvi, shuningdek O'zbekiston iqtisodiyotida investitsion jarayonlar to'g'risida malumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** eksport, import, yalpi ichki mahsulot, bozor, tashqi iqtisodiy siyosat, tashqi iqtisodiy faoliyat, xalqaro kompaniya, tashqi savdo, investitsiya, marketing, raqobat.

Xalqaro tovarlar, xizmatlar va kapitallar almashinuvining erkinlashish an'anasi kengayayotgan bir paytda, har bir davlat eksport va importni tartibga solishning ma'lum instrumentlarini saqlab qolmoqdalar. Ularning asosiy maqsadi-tarkibiy qayta qurish va inqiroz davrining qiyinchiliklarini yengib o'tish, milliy xavfsizlikni ta'minlash-takror ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlovchi va mamlakat mudofaa qobiliyati kabi strategik sohalarni moliyaviy ta'minlash, shuningdek, byudjet tushumlarini oshirishdan iborat bo'lmoqda.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda globallashuv bilan birga integratsiya jarayonlarining yana bir shakli-ma'lum geografik joylashuvga asoslangan hududiy integratsiya yuz bermoqda.

Har bir davlatning yillar davomida shakllangan o'z tarixiy iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy rivojlanish xususiyatlari mavjud bo'lib, boshqa mamlakatlarning tajribalarini ko'r-ko'rona ko'chirib olish, yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etiladigan, iqtisodiy rivojlanishning hamma uchun umumiy retseplarini qo'llash, samarasiz va iqtisodiy vaziyatni izdan chiqarishi mumkin.

Umuman olganda, moliyaviy globallashuv sharoitida jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvda rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribalariga tahliliy

yondashish va ushbu tajribalarni milliy xususiyatlar bilan eng optimal tarzda uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq sanaladi.

Xalqaro moliya- xalqaro moliyaviy resurslar majmuini va ularning harakatlanishini ifodalovchi tushuncha hisoblanadi. Xalqaro moliya munosabatlarni muayyan maqsadlarni amalga oshirish uchun xalqaro darajada shakllantirilgan moliyaviy resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi.

Jahon iqtisodiyotining rivojlanish jarayoni xalqaro moliya munosabatlarining rivojlanish evolyutsiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Xalqaro moliya munosabatlari jahon xo'jaligining shakllanishi jarayonida alohida o'rin tutadi.

Xalqaro moliya munosabatlari asta-sekin jahon xo'jaligining tarkibiy elementiga aylana bordi. Hozirgi vaqtda xalqaro moliya munosabatlarni jahon xo'jaligining rivojlanishi natijasida shakllangan mustaqil iqtisodiy tizim sifatida baholash mumkin.

Jahon xo'jaligi-bozor iqtisodiyotining obyektiv qonuniyatlariga bo'ysunuvchi xalqaro moliya munosabatlari orqali o'zaro bog'liq milliy iqtisodiyotlar yig'indisi sifatidagi global iqtisodiy tizimdir.

Jahon xo'jaligining barqaror rivojlanishida alohida olingan milliy iqtisodiyotlar holati muhim o'rin tutadi. Chunki, milliy iqtisodiyotlar jahon iqtisodiyotining asosiy subyekti hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotning rivojlanishida uning tashqi dunyo bilan aloqalari holati, mamlakatning xalqaro moliya munosabatlaridagi ishtiroki muhim o'rin tutadi. Mamlakatning xalqaro moliya munosabatlaridagi ishtirokining kuchayishida xalqaro moliya munosabatlarini amalga oshirish mexanizmlarini samarali tarzda tashkil etish bilan uzviy bog'liqdir. Ta'kidlash joizki, xalqaro moliya munosabatlarining predmeti ikkita muhim tarkibiy qismni o'ziga qamrab oladi, ya'ni xalqaro moliyaviy munosabatlar va ularni amalga oshirish mexanizmi. Ma'lumki mamlakatlar o'rtasidagi xalqaro moliya munosabatlari muayyan mexanizm orqali amalga oshiriladi, bunda xalqaro tashkilotlar tomonidan belgilangan me'yoriy normalar, davlatlararo darajadagi shartnoma va bitimlar, mamlakatlar o'rtasida o'zaro qabul qilingan kelishuvlarga amal qilinadi.

Xalqaro moliya munosabatlarining obyektiv asosini xalqaro mehnat taqsimoti va jahon xo'jaligi hamda undagi iqtisodiy aloqalar tizimi tashkil qiladi. Hozirgi zamon jahon xo'jaligi milliy iqtisodiyotlar yig'indisidan iborat bo'lgan global iqtisodiy tizim bo'lib, bozor iqtisodiyotining obyektiv qonunlariga, xalqaro mehnat taqsimotiga, ishlab chiqarish va kapitalning xalqaro harakatiga muvofiq tarzda o'zgarib boradi.

Xalqaro moliya munosabatlari rivojlanishining milliy iqtisodiyotga ta'siri quyidagi muhim xususiyatlar orqali namoyon bo'ladi:

- Moliyaviy globallashtirish jarayoni. Mazkur jarayon quyidagi o'zgarishlarni o'z ichiga qamrab oladi:

- Mamlakatlarni jahon iqtisodiyotidagi jarayonlarga jalb etish;
- Ishchi kuchi, texnologiya, kapital, mahsulotlar va xizmatlarning global bozorlarini barpo etish;
- Jahon xo'jalik aloqalarining global infratuzilmasini yaratish;
- Xalqaro moliya munosabatlari bilan milliy iqtisodiyotning qoidalarini universallashtirish;
- Yirik ishlab chiqarishga asoslangan xalqaro ishlab chiqarish tarmoqlarini vujudga keltirish.

• Iqtisodiy integratsion hudud va birlashmalarning tashkil topishi. Milliy iqtisodiyotlarning xalqaro mehnat taqsimotiga asoslangan holda iqtisodiy jihatdan birlashish jarayoni hisoblanadi.

• Xalqaro moliya bozorlaridagi o'zgarishlar. Milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatayotgan moliya institutlarining jahon moliya bozorlaridagi ishtirokini muvofiqlashtirib boradi.

• Global raqobatlashuv jarayonining keskinlashuvi. Ushbu holat, milliy iqtisodiyotlar tomonidan jahon bozorlarida o'rin egallash uchun yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni sotish jarayonida vujudga keladi.

• Mamlakatlarda tashqi iqtisodiy faoliyatning erkinlashtirilishi. Mazkur holat, milliy iqtisodiyotning tashqi dunyo uchun ochiqlik darajasi orqali ifodalanadi. Bunda, xalqaro moliya munosabatlarining ishtirokchilari uchun muayyan shart-sharoitlarning yaratilishi, xususan, xalqaro savdoda bojlarning pasaytirilishi, xorijiy investorlarni keng jalb etishga qaratilgan qulay investitsiya muhitining yaratilishi hamda valyuta cheklovlarining bekor qilinishi kabi tadbirlar amalga oshirilishi muhim o'rin tutadi.

• Tashqi iqtisodiy aloqalarning xalqaro me'yoriy-huquqiy bazasini qabul etilishi.

• Mamlakatlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni xalqaro jihatdan tartibga solish va nazorat qilish tizimini tashkil qilinishi.

Alohida olingan milliy iqtisodiyotning xalqaro moliya munosabatlaridagi ishtirokini bir necha miqdoriy ko'rsatkichlar bilan tavsiflash mumkin:

- eksport kvotasining miqdori, bunda eksport hajmi YaMMga nisbatan foizda hisoblanadi;

- import kvotasining miqdori, bunda import hajmi YaMMga nisbatan foizda hisoblanadi;

- tashqi savdo kvotasining miqdori, bunda tashqi savdo aylanmasi hajmi YaMM ga nisbatan foizda hisoblanadi.

Xalqaro moliya bozori boshqa bozorlar kabi funktsiyalarni bajarib, moliyaviy resurslarni sotuvchilar va oluvchilar o'rtasidagi munosabatlar uchun mo'ljallangan.

Jahon moliya bozori xalqaro kapital bozorining bir qismi bo'lib, turli mamlakatlardagi kreditorlar va qarz oluvchilarning kapitalga bo'lgan jami talab va taklifini o'zida mujassamlashtiradi. Shu o'rinda moliya bozori va iqtisodiy o'sish

o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'kidlab o'tish lozim. Chunki moliya bozorining mavjudligini asosiy tamoyili iqtisodiy o'sishni jadallashtirish hisoblanadi.

Xalqaro moliya bugungi jahon iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismidir. Ulaming rivojlanish darajasi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Hozirgi vaqtda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida moliyaning ahamiyati jahon yalpi ichki mahsulotini yaratishda moliyaviy sektorning rolini tavsiflovchi ko'rsatkichlar doirasidan ancha ii/oqlashgan. Iqtisodiy doiraviy aylanish natijasida moliyaviy kapital real kapitalga aylanadi. Pul va qimmatli qog'ozlar (moliyaviy aktivlar) usosiy fondlar va moddiy aylanma vositalar tarzida muomalada bo'ladi. Moliya tizimi, uning barcha sektorlari va segmentlari - uy xo'jaligi korporativ va davlat moliyasi, moliya va valyuta-kredit munosabatlari tizimining samarali ishlashi ham milliy, ham xalqaro darajada investitsion jarayonlar hamda yaxlit jahon iqtisodiyoti rivoji dinamikasi va laoligiga ko'p jihatdan bog'liq. Oxirgi yillarda jahon miqyosida jami kapital qo'yilmalar (to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar) hajmi jahon YalMning 25 foizidan ortig'ini tashkil etmoqda. Bunda ulaming bir qismi turli darajadagi moliya tizimlari orqali amalga oshirilmoqda. Hozirda xalqaro moliya va xalqaro moliya bozori sohalaridagi vaziyat real iqtisodiyot rivojiga oldingi davrlarga nisbatan solishtirganda bir muncha kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda. O'z navbatida moddiy ishlab chiqarishdagi holat ko'p jihatdan jahonda moliyaviy rivojlanishni belgilab bermoqda. XXI asming o'tgan yillari mobaynida jahon iqtisodiyotida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Muhim tendensiyalardan biri shubhasiz moliyaning roli oshganligi bilan izohlanadi. Bu jarayon zamonaviy iqtisodiyotda innovatsion rivojlanishning jadallashuvi va uning globallashuvi jarayoni bilan uzviy tarzda yuz berdi. Innovatsiyalar jahonda moliya sohasidagi jarayonlarga sifat jihatdan ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, o'z navbatida globallashuvga esa son jihatdan o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bunda moliyaviy innovatsiyalar sektorining rivojlanishi, yangi moliyaviy mahsulotlar va moliyaviy institutlarning paydo bo'lishi alohida ahamiyat kasb etdi. Xalqaro moliya bozorining son va sifat jihatdan rivojlanishi xalqaro iqtisodiy aloqalarning ko'lami, dinamikasi va yo'nalishlarini belgilab berdi. Ular o'z navbatida deyarli barcha mamlakatlar moliyaviy - monetar, byudjet-fiskal siyosatlariga, iqtisodiy yo'nalishlariga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada moliyaning global tavsifi va milliy darajada tartibga solinishi tavsifi o'rtasidagi qaramaqarshilikning oldini olish ham talab qilindi.

XXI asr zamonaviy jahon xo'jaligini shakllanishning muhim bosqichi hisoblanib, bunda xalqaro ishlab chiqarish kuchlarini shakllanishi, iqtisodiy o'zaro aloqa va o'zaro bog'liqlik kuchayib bormoqda. Jahon xo'jaligi rivojlanishida integratsiyalashuv jarayonning yangi yuqori bosqichi-jahon iqtisodiyotining globallashuvidir. Xalqaro kapital oqimlari va moliya bitimlari hajmi ortishi, turli ko'rinishdagi moliyaviy instrumentlar va texnologiyalarining foydalanish, zamonaviy elektron texnologiyalar, kommunikatsiya va informatsiya vositalarini joriy qilish natijasida jahon

mamlakatlarning moliyaviy o'zaro bog'liqligi, ya'ni iqtisodiy globallashtiruvning muhim yo'nalishi bo'lgan moliyaviy globallashtiruvga olib keldi. Moliyaviy bozorlar moliyaviy instrumentlar bilan savdosining rasmiy va norasmiy tizimi hisoblanadi. Ushbu bozorda pul almashinuvi, kredit taqdim etilishi va kapital mobilizatsiyasi amalga oshiriladi. Bu bozorda asosiy rol ni pul oqimlarini mulkdorlardan qarz oluvchilarga yo'naltiruvchi moliyaviy institutlar o'ynaydi.

Jahon iqtisodiyotining rivojlanish jarayoni xalqaro moliya munosabatlarining rivojlanish evolyutsiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Xalqaro moliya munosabatlari jahon xo'jaligining shakllanishi jarayonida alohida o'rin tutadi. Xalqaro moliya munosabatlari asta-sekin jahon xo'jaligining tarkibiy elementiga aylana bordi.

Hozirgi vaqtda xalqaro moliya munosabatlarini jahon xo'jaligining rivojlanishi natijasida shakllangan mustaqil iqtisodiy tizim sifatida baholash mumkin. Jahon xo'jaligi – bozor iqtisodiyotining ob'ektiv qonuniyatlariga bo'ysunuvchi xalqaro moliya munosabatlari orqali o'zaro bog'liq milliy iqtisodiyotlar yig'indisi sifatidagi global iqtisodiy tizimdir. Jahon xo'jaligining barqaror rivojlanishida alohida olingan milliy iqtisodiyotlar holati muhim o'rin tutadi. Chunki, milliy iqtisodiyotlar jahon iqtisodiyotining asosiy sub'ekti hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotning rivojlanishida uning tashqi dunyo bilan aloqalari holati, mamlakatning xalqaro moliya munosabatlaridagi ishtiroki muhim o'rin tutadi. Mamlakatning xalqaro moliya munosabatlaridagi ishtirokining kuchayishida xalqaro moliya munosabatlarini amalga oshirish mexanizmlarini samarali tarzda tashkil etish bilan uzviy bog'liqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Edward E. Leamer. *Macroeconomic Patterns and Stories*. Los Angeles CA 90095-1481. p. 158.
2. Mapping global capital markets 2017. // McKinsey Global Institute, August 2017. p. 2.
3. Seeking Alpha - Country Stock Markets As A Percent Of World - <https://seekingalpha.com/article/4225343>
4. SIFMA. *Trends in the Capital Markets - 2019 outlook*. p. 6.
5. *Международный финансовый рынок*. / Под ред. В.А.Слепова, Е.А.Звоновой. – М.: Магистр, 2009. С. 34. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий-электрон журнали. 3-сон, май-июнь, 2015 йил. [www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz)
6. Olimova R.E O'zbekiston va xalqaro moliya tashkilotlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni rivojlantirish masalalari. 8.
7. Хожиматов Р.Х. Жаҳон молия бозори: назарий қарашлар ва умумий тавсифи. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий-электрон журнали. 3-сон, май-июнь, 2015 йил.

8. Ёвқочев Ш. Халқаро молия институтларининг Ўзбекистон Республикасидаги инвестицион фаолияти таҳлили. // Экономика и бизнес. 2019, 1 (121)
9. О'роқов У. Ҳ., қизи Раҳимова Н. Ҳ. Investitsiyalarni jalb qilishda qulay investitsiya muhitining ahamiyati //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 229-239.
10. Dilmurod o'g'li, Fayzullayev Abdusamad, and Rahimova Nozimaxon Jahongirovna. "O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA ATROF-MUHITGA TA'SIRI." *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING 5.1* (2024): 19-23.
11. Vohidjonovich B. N., Jahongirovna R. N. RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA KAMBAG'ALLIK MUAMMOSI //ILM-FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 20-21.
12. Rahimova N. et al. Davlat xaridi munosabatlarining subyektlari //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 12. – С. 934-940.
13. Gulshoda B., Nozimaxon R. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA BYUDJET-SOLIQ TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 44. – №. 2. – С. 178-183.